



**“Umra” xizmatlarini
ko’rsatuvchi turoperatorlar
endi...**

2-betda o’qing ➤



**Ish haqidan
ushlab qolish mumkin...mi?**

3-betda o’qing ➤

INSON va qonun

www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official/) facebook.com/hudud24official/

2023-YIL
31-OKTABR
SESHANBA

№ 43 (1403)

www.hudud24.uz





@adolat_nashrlari



**“ADOLAT” milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo’ling!**



**“Adolat
nashrlari”
telegram
kanalida
kuzating!**



“MAFTUNKOR RANGLAR JILOSI” – MATONAT, MEHR, IRODA VA UMIDLAR DUNYOSI

Poytaxtimizda Adliya vazirligining “Biz birgamiz!” ijtimoiy loyihasi doirasida O‘zbekiston Nogironlar jamiyati, “Madad” NNT, Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi, O‘zbekiston taekvondo milliy asotsiatsiyasi hamkorligida “Maftunkor ranglar jilosi – 2023” V-respublika tanlovi bo‘lib o‘tdi. Unda respublikamizning 14 hududidan kelgan 28 nafar jismoniy imkoniyati cheklangan iqtidorli bolalar rasm chizish tanlovi, rasmlar ko‘rgazmasi va shaxmat sport turi bo‘yicha musobaqalarda ishtirok etdi.

Tanlovning ochilish marosimida Adliya vaziri o‘rinbosari Sherzod Rabiyeu ishtirok etib, tadbir ishtirokchilariga omad tiladi, tanlovda nafaqat O‘zbekiston, balki xalqaro sport musobaqalari g‘oliblari ham ishtirok etayotgani quvonarli ekanini alohida ta’kidladi. Tanlovning respublika bosqichida o‘z ijodiy ishi bilan qatnashishning o‘zi ularning o‘ziga xos muvaffaqiyatidan, g‘alabasidan dalolat ekanini bildirdi.

Davomi 5-betda ➤

2 QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR



BU YANGILIK – SIZ UCHUN
YENGILLIK

UZOG'INGIZNI YAQIN QILADI, VAQTINGIZ VA PULINGIZNI TEJAYDI

ELEKTRON RAQAMLI IMZO NIMA?

Elektron raqamli imzo bu – elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgarishlar natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik mavjud emasligini aniqlash va elektron raqamli imzo kalitining egasini identifikatsiya qilish imkonini beradigan imzodir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda hujjatlarni raqamlashtirish bilan birga elektron raqamli imzo ham yaratildi. Bu an'anaviy imzoning elektron va muqobil varianti hisoblanadi. Elektron hujjatlarni imzolash va haqiqiylikni tekshirishda elektron raqamli imzo ishlatiladi. Ikki yil muddatga beriladigan mazkur imzo vaqtingiz va pulingizni tejaydi.



UNI QANDAY OLISH MUMKIN?

Jismoniy yoki yuridik shaxs elektron raqamli imzoni 3 ta usulda – ya'ni davlat xizmatlari markaziga borgan holda, yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga kirgach, uydan chiqmay turib masofadan (onlayn) hamda ERI ro'yxatga olish markazining rasmiy veb-sayti "e-imzo.uz"dan foydalangan holda olishi mumkin.

IMZO KALITLARI EGALARINING QANDAY MAJBURIYATLARI BOR?

Elektron raqamli imzo kalitining egasi imzoning yopiq kaliti xavfsizligini ta'minlash uchun barcha mumkin bo'lgan choralarni ko'rishi, elektron raqamli imzoning kaliti boshqa shaxslar tomonidan foydalanilayotgani yoki kirish rejimining buzilgani aniqlangan taqdirda, elektron raqamli imzo kalitining sertifikatini bergan ro'yxatga olish markazini darhol xabardor qilishi, tarqatilishi cheklangan axborotni o'z ichiga olgan elektron hujjatlarga imzo qo'yish uchun mo'ljallangan elektron raqamli imzoning kalitidan faqat tegishli maqsadlarda foydalanishi shart.

Agar elektron raqamli imzo kalitining egasi yuridik shaxs bo'lsa, uning rahbari elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalanishi uchun mas'ul bo'ladi.

Zafarjon RAHMONOV,

Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi katta o'qituvchisi

1-NOYABRDAN NIMALAR O'ZGARADI?



TO'LOV STAVKALARIGA O'ZGARTIRISH KIRITILADI

To'lov stavkalari quyidagi miqdorda belgilanadi:

- ✓ Avtotransport vositalariga ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari (RO'DRB) uchun – Bazaviy hisoblash miqdori (BHM)ning 3,5 baravari miqdorida;
- ✓ Mototransport vositalari, motorollerlar va tirkamalarga RO'DRB uchun – BHMning 1,75 baravari miqdorida;
- ✓ Tranzit RO'DRB uchun – BHMning 25 foizi miqdorida;
- ✓ Yaroqsiz holga kelgan, buzilgan yoki shikastlangan bir juft RO'DRB o'rniga yangi RO'DRB berish uchun – BHMning 3,5 baravari miqdorida;
- ✓ Yaroqsiz holga kelgan, buzilgan yoki shikastlangan bir dona RO'DRB o'rniga yangi RO'DRB berish uchun – BHMning 1,75 baravari miqdorida.

OBJEKT LARNI MOLIYALASHTIRISH TO'XTATIB TURILADI

"O'zbekiston – 2030" strategiyasining suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish yo'nalishi doirasida:

- ✓ ijobiy ekologik ekspertiza xulosasini olmagan obyektlarga nisbatan moliyalashtirish, kreditlash va boshqa moliya operatsiyalarini to'xtatib turish mexanizmi joriy etilsin;
- ✓ ekologik huquqbuzarlik sodir etganlarga nisbatan zararni qoplash bilan bir qatorda, zarar yetkazilgan tabiat obyektlarini tiklash va uning muayyan muddat davomida muhofaza qilinishini ta'minlash majburiyati yuklansin.




PSIXOLOGIK YORDAM KO'RSATILADI

Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan ijtimoiy xizmatlar va yordamlar eksperiment tariqasida yo'lga qo'yiladigan tuman (shahar)larda "Inson" ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish markazlarida og'ir hayotiy vaziyatga tushgan shaxslar uchun psixologik yordam ko'rsatish tizimi joriy etiladi.

MA'LUMOTLAR ELEKTRON PLATFORMADA SHAKLLANTIRILADI

Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida inson resurslarini boshqarishga oid barcha ma'lumotlar va hujjatlar elektron platformada shakllantiriladi va yuritiladi (harbiylashtirilgan tuzilmalar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bundan mustasno).



"UMRA" XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI TUROPERATORLAR ENDI...

"Umra" tadbirlarini tashkil etish va o'tkazishga oid xizmatlarni ko'rsatuvchi turistik faoliyatni amalga oshirish litsenziyasi mavjud tashkilotlarga nisbatan qo'shimcha litsenziya talab va shartlari qo'llaniladi.

Bunda ulardan litsenziyani qayta rasmiylashtirishda arizani ko'rib chiqish uchun to'lanadigan yig'im va litsenziya uchun davlat boji undirilmaydi.

XULOSA OLMAGAN OBJEKT LARDAN FOYDALANISHGA RUXSAT BERILMAYDI

Qonunchilikka ko'ra:

Davlat yong'in nazorati organlarining ijobiy xulosasini olmasdan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini auksionga chiqarish, qurilish obyektlari loyiha-smeta hujjatlari kelishish hamda qurilish-montaj ishlari tugallangan obyektlardan foydalanish uchun ruxsatnoma berish taqiqlanadi.

Bunda davlat yong'in nazorati organlari tomonidan xulosa berish muddati 7 kun etib belgilanadi. Shuningdek, davlat yong'in nazorati organlariga loyiha-smeta hujjatlarini kelishish uchun mazkur hujjatlarning barcha qismlari taqdim etiladi.



Qavomiddin XUJJATOV,

"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi mas'ul xodimi

ISH HAQIDAN USHLAB QOLISH MUMKIN...MI?



Mehnat kodeksining 269-moddasi-ga asosan, umumiy qoidaga ko'ra xodimning yozma roziligi bilan, xodimning roziligi bo'lmagan taqdirda esa quyidagi hollarda ish haqidan ushlab qolish mumkin.



Ya'ni, ish haqidan ushlab qolish soliqlar va yig'implarni undirish uchun, "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi qonunda belgilangan sud qarorlarini va boshqa ijro hujjatlarini ijro etish uchun, shuningdek, vakolatli organlarning qonuniy talablarini bajarish uchun amalga oshiriladi.



Bundan tashqari, ish haqi hisobiga berilgan bo'nakni ushlab qolish, boshqa joydagi ishga ko'chib o'tgani munosabati bilan xo'jalik ehtiyojlariga, xizmat safarlariga berilgan, sarflanmagan va o'z vaqtida qaytarilmagan bo'nakni hamda hisob-kitobdagi xatolar oqibatida ortiqcha to'langan summani qaytarish uchun ham ish haqidan ushlab qolish mumkin. Bunday hollarda ish beruvchi bo'nakni qaytarish, qarzdorlikni to'lash uchun belgilangan muddat tamom bo'lgan kundan yoki to'lov noto'g'ri hisoblab chiqarilgan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay ushlab qolish haqida buyruq chiqarishga haqli. Agar bu muddat o'tib ketgan bo'lsa yoki xodim bo'nakni to'lash uchun ushlab qolish asoslariga yoxud miqdoriga e'tiroz bildirayotgan bo'lsa, qarzni to'lash sud tartibida amalga oshiriladi.

Xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash uchun ham ish haqidan ushlab qolinishi mumkin, biroq bunda yetkazilgan zararining miqdori xodimning o'rtacha oylik ish haqidan oshib ketmasligi kerak.



Mehnat kodeksining 312-moddasi birinchi qismining 2-bandida nazarda tutilgan jarimani undirish uchun ham xodimning oylik maoshidan ushlab qolinishi mumkin.

Xodim qaysi ish yili hisobiga ta'tilni olib bo'lgan bo'lsa, o'sha yil tugaguniga qadar mehnat shartnomasi bekor qilinganda, ta'tilning ishlab berilmagan kunlari uchun ish haqidan ushlab qolinadi.

Har yilgi mehnat ta'tilining ishlab berilmagan kunlari uchun ushlab qolishlar mehnat shartnomasi Mehnat kodeksining tegishli moddalarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, shuningdek, xodimning tashabbusi bilan ushbu kodeks 160-mod-

dasining sakkizinchi qismida ko'rsatilgan uzrli sabablar mavjud bo'lganda bekor qilingan taqdirda amalga oshirilmaydi. Basharti ishga qabul qilishga doir belgilangan qoidalarining buzilishi yoxud yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatning davom etishiga monelik qiluvchi holatlarning yuzaga kelishi xodimning aybli harakatlari (harakatsizligi) bilan bog'liq bo'lmasa, mehnat shartnomasi ushbu kodeks 168-moddasining 4 va 5-bandlariga ko'ra bekor qilinganda ham bunday ushlab qolish amalga oshirilmaydi.

Xodimga ortiqcha to'langan ish haqi (mehnat to'g'risidagi qonunchilik yoki mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlar noto'g'ri qo'llanilganda) undan undirilishi mumkin emas. Bundan quyidagi hollar mustasno:



hisoblashdagi xatolik;



agar yakka tartibdagi mehnat nizolarini ko'rib chiquvchi organ tomonidan xodimning mehnat normalarini bajarmaganlikdagi aybi e'tirof etilgan bo'lsa;



xodimning sud tomonidan belgilangan g'ayriqonuniy harakatlari sababli xodimga ortiqcha ish haqi to'langan bo'lsa.



Soliq kodeksiga muvofiq soliq solinmaydigan to'lovlardan ushlab qolishlar amalga oshirilishi mumkin emas. Shuningdek, ushbu kodeksning 270-moddasida ish haqidan ushlab qolish miqdorlarini cheklash tartibi belgilangan. Unga ko'ra, har bir to'lov chog'ida ish haqidan ushlab qolingana mablag'ning umumiy summasi xodimga haqiqatda hisoblangan ish haqining ellik foizidan oshishi mumkin emas.

Ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan cheklov aliment majburiyatlari bo'yicha qarzdorlikni, shuningdek axloq tuzatish ishlari tarzida jazo tayinlangan xodimning ish haqini ushlab qolishga nisbatan tatbiq etilmaydi. Bunday hollarda jazodan va aliment majburiyatlari bo'yicha qarzdorlikdan ushlab qolish miqdori xodimga haqiqatda hisoblangan ish haqining yetmish foizidan oshmasligi kerak.

Ilhomjon YUSUPOV,

Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi



HOKIM yordamchilariga TA'TIL berilmaydimi?

– Hokim yordamchisi bo'lib ishlayman. 2022-yil yanvar oyidan ish boshlaganmiz. Lekin shu kunga qadar mehnat ta'tili berilmagan. Ta'til so'rasak, rahbariyatdan hokim yordamchilariga ta'til yo'q, degan javobni oldik. Hokim yordamchilari ta'til olishlari mumkinmi?

Jahongir PIRNAZAROV,
Farg'ona viloyati

– Hokim yordamchilari ham xodim. Ularning mehnatga oid munosabatlari Mehnat kodeksi bilan tartibga solinadi va amalga oshiriladi.

Mehnat kodeksining 214-moddasida xodimning ta'til olish huquqini ta'minlash kafolatlari belgilangan. Unga ko'ra, ish beruvchi:

- ☒ xodimlarga qonunchilikda kafolatlangan ta'tillar berishi;
- ☒ xodimlarga davomiyligi qonunchilikda kafolatlanganidan kam bo'lmagan ta'tillar berilishini ta'minlashi;
- ☒ ta'tillar berish tartibiga rioya etishi;
- ☒ xodimlarga jamoa kelishuvlarida, shuningdek jamoa shartnomasida va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda yoxud mehnat shartnomasida nazarda tutilgan ta'tillar sohasidagi qo'shimcha huquq va kafolatlarni berishi shart.

Mehnat kodeksining 216-moddasi birinchi va ikkinchi qismlariga ko'ra, har yilgi mehnat ta'tili dam olish va ishlash qobiliyatini tiklash uchun ish o'rni (lavozimi) hamda o'rtacha ish haqi saqlab qolingana holda xodim ishdan ozod etiladigan, xodimga har ish yili davomida beriladigan vaqt davridir. Barcha xodimlar, shu jumladan o'rindoshlik asosida ishlaydigan xodimlar ham har yilgi mehnat ta'tiliga chiqish huquqiga ega.

Mehnat kodeksining 227-moddasiga muvofiq, birinchi ish yili uchun har yilgi mehnat ta'tilidan foydalanish huquqi xodimda u ushbu ish beruvchida uzluksiz ishlagan olti oy o'tganidan keyin yuzaga keladi. Mehnat shartnomasi taraflarining kelishuviga ko'ra xodimga ishlagan olti oy o'tguniga qadar mehnat ta'tili berilishi mumkin.

Mehnat kodeksining 228-moddasiga ko'ra, ikkinchi va keyingi ish yillari uchun har yilgi mehnat ta'tili ish beruvchi va xodim uchun majburiy bo'lgan ta'tillar jadvali bilan belgilanadigan har yilgi mehnat ta'tillarini berish navbatiga muvofiq beriladi. Xodim har yilgi mehnat ta'tili beriladigan vaqt to'g'risida ta'til boshlanishidan kamida o'n besh kun oldin xabardor qilinishi kerak.

Bu holatda xodimning arizasi ham talab qilinmaydi, ish beruvchi ta'tillar jadvaliga ko'ra 15 kun oldin ogohlantirib, ta'tilga chiqarib yuborishi shart.

Shuningdek, har yilgi mehnat ta'tili har yili, ushbu ta'til berilayotgan ish yili tugaguniga qadar berilishi kerak.

Demak, yuqoridagi asoslar bo'yicha ish beruvchi ta'tillar jadvaliga ko'ra xodimlarga o'z vaqtida va ish yili tugaguniga qadar mehnat ta'tillarini berishi shart. Ta'tillarni o'zgartirish Mehnat kodeksining 229-moddasiga ko'ra, taraflar o'rtasidagi kelishuvga ko'ra amalga oshirilishi mumkin.

Xodimga mehnat ta'tili bermaslik ish beruvchi tomonidan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 49-moddasiga ko'ra mehnat va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzish deb topilib, tegishli javobgarlik qo'llanilishiga asos bo'ladi.

**Savolga Adliya vazirligi mas'ul xodimi
Shavkat HAMROQULOV javob berdi**

4 MUROJAATLAR ADLIYA NIGOHIDA

FARG'ONA

USTAMA
OLISHIM
MUMKINMI?

– San'at maktabida o'qituvchi bo'lib ishlayman. 2023-yil 1-fevraldan 4-iyunga qadar tug'uruq ta'tilida bo'ldim. Ishga chiqdim. Shu o'quv yilida 2022-2023-o'quv yilidagi ishlarim, o'quvchilarimning erishgan yutuqlari, sinf rahbarligim uchun direktor jamg'armasidan ustama olishim mumkinmi?

Madinabonu KAMOLOVA,
Ixtisoslashtirilgan san'at maktabi o'qituvchisi

– Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrda 823-sonli qarori bilan “Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirishning direktor jamg'armasini tashkil etish va uning mablag'laridan foydalanish tartibi to'g'risida”gi nizom tasdiqlangan.

Pedagog xodimlarga ustama tayinlash maktabda tashkil etiladigan ustamalar belgilash, moddiy rag'batlantirish va moddiy yordam berish bo'yicha ishchi guruhlar tomonidan amalga oshiriladi.

Ishchi guruh rahbari – umumta'lim muassasi direktori hisoblanadi. Ishchi guruh yaxshi ishlayotgan pedagog xodimlarni nizomda belgilangan baholash mezonlari asosida aniqlaydi.

Baholash mezonlarida ko'rsatilgan sinfdagi o'quvchilarning o'zlashtirish sifati, olimpiada, tanlov, musobaqa va boshqa tadbirlarda qatnashish, ish tajribalarini ommalashtirish, ish staji, sinf rahbari ekanligi, o'z vaqtida malaka oshirib borishi shundoq ham amalga oshiriladigan ishlar sirasiga kiradi.

Shuning uchun ustama olish istagida bo'lgan pedagog xodim, albatta, nizom bilan tanishib

chiqishi, buning uchun bir yil muddat avval harakat qilishi lozim. Unga ko'ra, o'quv-tarbiya jarayoniga shaxsiy hissa qo'shayotgan, o'z kasbiga sodiq va tashabbuskor, yuqori kasb darajasini namoyon etayotgan pedagog xodimlarning bazaviy tarif stavkasiga har oylik 40 foizgacha ustama belgilash mumkin.

Bunda pedagog xodimlarning faoliyatini baholash mezonlari asosida to'plagan umumiy ballari bo'yicha quyidagi miqdorlarda ustama haq belgilanadi: 65 – 70 ball to'plasa – 10 foiz, 71 – 75-ball uchun – 15 foiz, 76 – 80 ballga – 20 foiz, 81 – 85 ballga – 25 foiz, 86 – 90 ball uchun – 30 foiz, 91 – 95 ball to'plasa – 35 foiz, 96 – 100 ballga – 40 foiz.

Sizning holatingizda ishchi guruh tomonidan ish faoliyatingizni 2022-yil sentabr oyidan 2023-yil fevral oyigacha bo'lgan muddatdagi ko'rsatkichlaringiz bo'yicha ko'rib chiqib, mezonidagi talablarga muvofiq kelsa, shunga yaroqcha ball qo'ygan holda tegishli ustama belgilanishi mumkin.

Savolga Marg'ilon shahar adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti Sherzod TOLIBOV javob berdi

ANDIJON

MA'MURIY REGLAMENT
TALABLARINI BUZGAN XODIMG
JARIMA JAZOSI TAYINLANDI

Andijon viloyat adliya boshqarmasi tomonidan joriy yil boshidan buyon 66 ta xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarda 6 marotaba o'rganish, 17 marotaba monitoring o'tkazildi. Davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida jami 5 ming 629 ta qonunbuzilish holatlari aniqlandi.



Aniqlangan qonunbuzilish holatlari yuzasidan 326 ta ta'sir choralari qo'llanilib, 247 nafar shaxs javobgar bo'ldi. Kiritilgan taqdimnomalarga asosan 24 nafar xodim intizomiy javobgarlikka tortildi. 223 nafar huquqbuzarlarga nisbatan 214 million 860 ming so'm miqdorida ma'muriy jarima qo'llanildi. Ma'muriy jarimalarning 126 million 720 ming so'mi huquqbuzarlar tomonidan ixtiyoriy ravishda to'lanishi ta'minlandi.

Jumladan, viloyat adliya boshqarmasining tegishli qaroriga asosan viloyat Yoshlar siyosati va sport bosh boshqarmasi xodimi K.U.ga nisbatan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 215⁵-moddasiga asosan bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida, ya'ni 900 ming so'm miqdorida jarima jazosi tayinlandi.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-martdagi 118-sonli qarori bilan tasdiqlangan Sport-ta'lim muassasalarining trener-o'qituvchilari va yo'riqchi-uslubchilariga malaka toifalarini berish bo'yicha davlat xizmati ko'rsatishning ma'muriy reglamenti tasdiqlangan. Reglamentning 12-bandida “O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustozlari” yoki “Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustozlari” unvoniga, jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy darajaga ega bo'lgan shaxslar haq to'lashdan ozod etilishi, davlat

xizmati ko'rsatilgani uchun to'lov to'lan-ganini tasdiqlash axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali amalga oshirilishi belgilangan.

K.U. sport-ta'lim muassasalarining yo'riqchi-uslubchisi uchun birinchi yoki ikkinchi malaka toifasini olish to'g'risidagi va sport-ta'lim muassasalarining trener-o'qituvchisi uchun birinchi yoki ikkinchi malaka toifalarini olish to'g'risidagi murojaatlarni elektron tizimdan qabul qilish va ko'rib chiqishga mas'ul xodim hisoblangan. U sport-ta'lim muassasalarining yo'riqchi-uslubchisi uchun malaka toifasini olish to'g'risidagi 2 nafar va sport-ta'lim muassasalarining trener-o'qituvchisi uchun malaka toifalarini olish to'g'risidagi 18 nafar fuqaroning murojaatini ko'rib chiqqan. Biroq sport-ta'lim muassasalarining trener-o'qituvchilari va yo'riqchi-uslubchilariga malaka toifalarini berish bo'yicha davlat xizmati ko'rsatishning ma'muriy reglamenti talablariga zid ravishda arizachilarda belgilangan imtiyozlar mavjud bo'lmasa-da, murojaatlarni haq to'lashdan ozod etilgan holda ko'rib chiqib, sport murabbiylariga malaka toifalari guvohnomalarini noto'g'ri bergani ma'lum bo'ldi. Oqibatda unga nisbatan jarima jazosi tayinlandi.

Sultonbek ISAKOV,
Andijon viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

BUXORO

Buxoro tuman “Yangi turmush” mahallasida yashovchi X. Tilavovning Adliya vazirligiga qilgan murojaati tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganildi.

QOROVULNING HAQI TO'LANDI

Murojaat tegishli tartibda mutaxassislar ishtirokida o'rganilganda, tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limining 2023-yil 21-iyundagi ma'lumotnomasiga ko'ra X. Tilavov haqiqatan ham joriy yilning 1-maydan buyon tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli Choraha oilaviy shifokorlik punktida qorovul vazifasida ishlab kelayotgani, may oyidagi tungi navbatchiligi uchun 198 ming 832 so'm kam haq to'lab berilgani aniqlandi.

O'rganish natijalariga ko'ra, adliya bo'limi tomonidan tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i nomiga X. Tilavovga 198 ming 832 so'mni to'lab berish yuzasidan taqdimnoma kiritildi. Qonunbuzilishiga yo'l qo'ygan aybdor shaxsning ma'muriy javobgarlik masalasi hal etildi.

Abdurahimxo'ja BAFAYEV,
Buxoro tuman adliya bo'limi boshlig'i

NAVOIY

XORIJLIK TADBIRKOR
MAMNUN

Tadbirkorning omadi yurishdimi, biznesi ortidan boy bo'lishi tayin. Ayniqsa, mahalliy ishbiarmonlarimiz bugun xorijiy hamkorlar bilan o'z tadbirkorligini yanada mustahkamlab, jahon bozoridan o'z o'rnini topishga harakat qilayapti. Masalan, zaminimizning quyoshga to'yingan meva-sabzavotlarini xorijga eksport qilish bilan ko'plab davlatlarga mashhur bo'lish imkonini mavjud.

Bu gal chet ellik biznes vakillari Navoiydan sarxil mevalarni dunyo bozoriga olib chiqmoqchi. Navoiy shahar adliya bo'limi davlat xizmatlari markazidan turk ishbiarmoni Kosyigit Barlas meva import-eksporti bilan shug'ullanadigan “Prizma alfa” MChJ shaklidagi xorijiy korxonasini davlat ro'yxatidan o'tkazdi. Markaz xodimi turkiyalik tadbirkorga yashil yo'lak tamoyili asosida 20 daqiqada tezkor va sifatli davlat xizmati ko'rsatdi.

Gavhar RO'ZIYEVA,
Navoiy shahar adliya bo'limi DXM bo'lim boshlig'i



RANGLAR TILGA KIRGANDA...

Ranglarning sehri fargʻonalik **Marjona ERGASHEVA**ni ham oʻziga maftun etgan. U 7-sinf oʻquvchisi. Chizgan rasmida tunni tasvirlagan. Aytishicha, tun osoyishta, osudaligi bilan, shovqindan xoliligi bilan unga ilhom beradi. “Qora tundan ham inson yorugʻlik topishi mumkin. Shuning uchun men osmonda juda koʻp yulduzlar chamanini, gullab turgan daraxt va kichikkina uyni tasvirladim. Toʻlin oy esa suratimda oʻsha yorugʻlik timsoli. Aytmoqchimanki, hayotda yaxshi va yomon, ogʻir va yengil kunlar boʻlishi mumkin. Lekin ogʻir kunlarni yengish, undan yorugʻlik topishni oʻrganish kerak.”



Qashqadaryodan **Ogʻabek ASA-DULLAYEV**. U 10-sinfda oʻqiydi. Tabiat manzaralarini yaxshi koʻrgani uchun tanlovdagi ishida tabiat qoʻynidagi odamlarni tasvirlashga harakat qilgan. Biroz gapirishni istamay turgan qahramonimiz, rassomlikka oid savollarimizdan keyin ochildi. U ogʻir atletika boʻyicha sport musobaqasi ishtirokchisi. Hassa tayoqda qiyinmasmi deb oʻylayapsizmi, opa, bu savolni koʻzlaringizdan sezdim, – deb qoldi u. Yoʻq, qiynalmayman. Iroda insonga katta kuch bagʻishlaydi. Ustozim Osiyo chempionatiga ketgan. Men ham ustozimdek qatʼiyatli boʻlishni istayman. Albatta, ulardek trener boʻlaman.

2017-yilda dardga chalinganimdan keyin tushkunlikka tushib qolishim, toʻrt devorga qarab yotishim ham mumkin edi. Lekin ota-onam, ustozlarim va oʻzimga boʻlgan ishonchim menga kuch berdi. Sport bilan shugʻullanyapman. Menga oʻxshagan tengdoshlarimga aytadigan gapim: hech qachon dardga yengilmang!”

SHOHRUHBK chizgan rasmlarda qora ranglarga isyonni koʻrdik. Qora delfin, qora barglar...

– Shohruhbk, rasmlarni juda chiroyli chizarkansiz. Lekin, nega ular delfinlar va daraxt barglari qora rangda?

– Shunday boʻlgani yaxshi.
– Nega endi? Hayotda delfinlar qora rangda boʻlmaydi-ku. Barglar ham.
– Boʻladi, siz bilmaysiz.
– Qanday?
– Hamma narsa qora rangda boʻlishi mumkin, faqat delfin va barglar emas, togʻlar ham, gullar ham, osmon ham...
– Yoʻgʻeyee, osmonning qora boʻlishi...



☺ Davomi. Boshlanishi 1-betda

Ranglarning moʻjizasi bor. Ularni tushunish, his etish uchun aslida tarjimon shart emas. Tanlovda ishtirok etgan bolalarning koʻzlarida hayajon, qoʻllarida betakror moʻjizalar yarata oladigan sehri moʻyqalam. Hayotdan zavq, sabrdan saboq, mehrdan kuch va imkon topish uchun, albatta, bu rasmlarni koʻrish, Olooh uzrli qilib yaratgan bu bolajonlarning qalbiga quloq solish kerak! Ishtirokchilar bilan suhbatimizga ranglarning oʻzi tarjimon boʻldi.

“MAFTUNKOR RANGLAR JILOS” – *matonat, mehr, iroda va umidlar dunyosi*



– Siz qachondir yugurgingiz kelganda yugurolmay qolganmisiz? Ichingizdan katta kuch kelib koʻptokni tepgingiz keladi-yu... oyogʻingiz harakatlanmaydi. Siz bunday ahvolga tushmagan boʻlsangiz kerak, shuning uchun qora ranglarni koʻrolmaysiz...

U bilan suhbatni davom ettirishga kuchimiz yetmaydi... 9 yoshli bolaning yerga ura koʻkka sapchiydigan, kuch-gʻayrati, quvonchi-yu alami, nimani his etsa ichiga sigʻmaydigan bir davri. Ana shularning barchasi kutilmaganda, birdaniga bitta aravachaga mixlanib qolsa... Hayotning bunday sinovlari bu kichik rassomni naqadar ulgʻaytirganiga guvoh boʻlamiz.

ZULFIYA zamonamiz qahramoni. U 10-sinf oʻquvchisi. Taekvondo boʻyicha IV xalqaro Namangan Open musobaqasi gʻolibi. Rassomlik uning xobbisi. Koʻproq liboslar dizayni boʻyicha ijod qiladi.

– Ota-onam meni har doim qoʻllab-quvvatlashgan. Sport menga kuchli boʻlishni oʻrgatdi. Bir qoʻlimda nuqsonim borligi ham bilinmaydi. Ayniqsa, xalqaro darajada gʻolib boʻlganimda sportga ilk kelgan chogʻimdagi qiyinchiliklarni yengishga kuch topganim, mashaqqatiga qaramay mashqlarni davom ettirganim koʻz oldimda gavdalanadi. Har bir ishning qiyinchiligi boʻlishi aniq. Uni sabr bilan, matonat bilan yenga olgan insongina gʻalabaga erishadi. Orzuim kelgusida ustozim Davron akadek sport mu-rabbiysi boʻlish. Hayotimda erishgan barcha yutuqlarda ularning hissasi bor. Ustozimga rahmat, – deydi qahramonimiz.

“Maftunkor ranglar jilos” tanloviga bir dasta rasmlarini olib kelgan shofirkonlik **SHOHRUH**ning gaplaridan, fikrining teranligidan, moyboʻyoqni, xolstni, politrani tushunishidan (u

rassomchilik toʻgaragiga qatnarkan) majoziy oʻylaridan hayron qolasiz. U hozir 13 yoshda.

Shohruh rasmlarida tabiat goʻzalligini – koʻl tubiga choʻkayotgan oy, oy yogʻdusida parvoz etayotgan qushlar, archazorning suv sathidagi aksi misolida juda betakror tasvirlagan. “Faqat rasm chizgandagina tinchlanaman”, deydi u. Uning qalbiga qora ranglar soya solgan chogʻda ham dunyoga umid bilan qaraydi. “Har safar rasm chizish uchun qoʻlimga qalam olganimda yangi bir orzu paydo boʻladi, qayerdandir hali hammasi yaxshi boʻladi, degan ishonch keladi, yana oyoqqa turib ketishimga umid uygʻonadi”, – deydi Shohruh suhbat soʻngida. Demak, hali tasvirlarda yorqin ranglarning koʻpayishiga umid, Shohruhning orzulari ushalishiga ishonch bor.

Tanlovga Qoraqalpogʻ qizi **HURLIMAN**ning ayollar liboslari uchun chizgan dizaynlari juda chiroyli, zamonaviy, har mavsumga mos, mehr bilan ishlanganligi eʼtiborni tortdi.



Boysunlik **OYBARCHIN** esa multfilm qahramonlari – malikalarga, ularning koʻzlariga (oʻzining aytishicha) oʻz dardlarini singdiribdi.

Onasiga hovlida qoʻlyuvgich (rakovina) yasab bergan, bobosining imoratiga loyiha chizgan bekobodlik **OZODBEK** esa uylar va shaharlar tasvirlangan rasmlarida joʻshqin hayotni, ertangi kunga ishonchni aks ettirgan. U boʻlajak arxitektor. Onasining aytishicha, yashash uchun koʻproq u oʻgʻliga emas, nogironlik aravachasida oʻtirgan oʻgʻli unga motivatsiya berar ekan.

Tanlovning rasm chizish turi boʻyicha **Hurliman Saparniyazova** (Qoraqalpogʻiston Respublikasi)ga, **Muhammadsodiq Abdushukurov** (Toshkent shahri)ga, **Oybarchin Umarova** (Surxondaryo)ga sovrinli oʻrinlar nasib etdi.

Shaxmat turnirida esa **Uralbek Normoʻminov** (Surxondaryo), **Azizbek Ismoilov** (Xorazm), **Muhammadyusuf Ahmedov** (Namangan)lar gʻolib deb topildi.

Tanlov ishtirokchilarining barchasi qimmatbaho sovgʻalar, medal hamda Faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

Shuningdek, Adliya vazirligi tomonidan eʼlon qilingan “Nogironligi boʻlgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish” huquqiy aksiyasi doirasida Adliya vazirligi hamda “Madad” nodavlat notijorat tashkiloti xodimlari tomonidan sayyor qabul oʻtkazilib, tadbir ishtirokchilariga huquqiy yordam koʻrsatildi.

Dilfuza ERGASHEVA,
Madhiya AVAZOVA,

“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi masʼul xodimlari

6 SUD ZALIDAN

Qo'qon shahrida yashovchi 16 yoshli Laziz Asadov (ism-shariflari o'zgartirilgan) ayni paytda maktab o'quvchisi. Ammo uning goh-gohida hech bir sababsiz maktabdan "progul" qiladigan odati bor.

MAKTABGA BORMAGAN O'QUVCHI IKKI TENGDOSHINING HAYOTIGA SUIQASD QILDI

Laziz shu yilning 9-mart kuni ham darsga bormadi. Biroq buning sababini na ota-onasi, na maktabdagi ustozlari so'rab-surishtirishmadi. Albatta, jiddiy nazorat bo'lmaganidan keyin bola o'z bilganidan qolmaydi, xohlagan joyiga boradi, keladi.

Xullas, tushgacha mayda-chuyda ishlari bilan vaqt o'tkazgan o'quvchi yigit shahardagi "Benazir" savdo markazi yonida bodroq sotayotgan tanishi Muhammadmirzoning oldiga boradi. Oshnasi Otabek bilan o'sha yerda uchrashgach, do'sti Akramni ham chaqirishadi. Chunki uchchovlon birga sartaroshxonaga borishni mo'ljallashadi. Laziz Muhammadmirzo bilan suhbatlashib o'tirgan paytda do'kon oldidagi yo'ldan aka-uka Behruzбек va Anvarjon Sobirovlar hamda Shahriyor Esonov o'tib qolishadi. Ularning yonida 3-4 nafar tanish qizlar ham bor edi. Shunda B. Sobirov do'konga – L. Asadovga yaqinroq keladi.

– Bunyodmisan? – deb so'raydi u.
– Yo'q, men Lazizman. Bunyod akam bo'ladi, – javob beradi Laziz.

– Sen meni instagrammda so'kkanding-a? – xo'mrayib so'z qotadi Behruzбек.

– Adashyapsiz, men so'kmaganman, – tuhmatdan kayfiyati buziladi L. Asadovning.

Lekin B. Sobirov uning gapiga ishonmaydi.

– Bu yoqqa, tashqariga chiq. Hozir qo'lingni ko'ksingga qo'yib, tiz cho'kib, uzr so'raysan, – deydi u o'dag'aylab, onasidan so'kinib. Shu bilan birga, uyali telefonini yonidagi Dilnozaga berib, holatni videotasvirga tushirishini aytadi.

– Nega men qilmagan aybim uchun kechirim so'rashim kerak? – yana e'tiroz bildiradi Laziz.

Behruzбекning dabdurustdan o'dag'aylab, asossiz ayblagani hamda onasini haqoratlab so'kingani uning jahlini chiqaradi. Oqibatda L. Asadov doimo yonida olib yuradigan, erkaklar shimi tasmasiga moslashtirilgan, qini berkiladigan pichoqni chiqarib, avval bir necha marotaba B. Sobirovga, so'ng uning ukasi Anvarjonning ko'krak qafasi va yelkalariga sanchadi. Buni ko'rib turgan Shahriyor esa Lazizga tosh otdi. Shu bois, L. Asadov uni quvlashga tushadi. Ammo Sh. Esonov oyog'ini qo'lga olib, qochib qoladi. Shundan keyin u Akram bilan birga avtobusga chiqib, Yangibozor tomonga ketadi. Aka-uka Sobirovlarni esa shifoxonaga olib borishadi.

O'sha kuni Laziz Asadovga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atiladi. Yaqinda mazkur holat jinoyat ishlari bo'yicha Qo'qon shahar sudida ko'rib chiqildi. Sud uni Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan aybdor deb topib, 5 yil muddatga ozodlikdan mahrum etdi.

Nodirjon KIMSANOV,

jinoyat ishlari bo'yicha Qo'qon shahar sudining sudyasi



SUDGA QANDAY MUROJAAT QILINADI? 5 MUHIM SAVOLGA JAVOB

Sudga murojaat qilish tartibi qanday? Masalan, hokim ustidan arz qilinganda qaysi sudga boriladi-yu, aliment undirishni qaysi sud ko'rib chiqadi? Ishlar nechta bosqichda ko'riladi? Sudga berish qanchaga tushadi? Davlat bojini kimlar to'lamaydi?

1. SUDGA MUROJAAT QILISH SHAKLLARI QANDAY?

Buzilgan huquqingizni tiklash va qonuniy manfaatlaringizni himoya qilish uchun sudga murojaat qilmoqchi bo'lsangiz, ishning sudga tegishliligi va uning turkumiga qarab da'vo arizasi, ariza, shikoyat, iltimosnoma kabi hujjatlar orqali murojaat qilishingiz mumkin.

Ishning sudga tegishliligi deganda, muayyan ishni ko'rib chiqish vakolati qaysi sudga taalluqli bo'lishi tushuniladi. Masalan, hokimning qarori ustidan arz qilmoqchi bo'lsangiz, ma'muriy sudga murojaat qilishingiz kerak. Aliment undirish bo'yicha ishlarni fuqarolik sudlari ko'rib chiqadi.

Fuqarolik va iqtisodiy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar bo'yicha sudga da'vo arizasi shaklida murojaat qilinadi.

Fuqarolik va iqtisodiy ishlarda buyruq tartibida (nizosiz talablar bo'yicha) hamda alohida tartibda ish yuritishda, shuningdek nizoli masalalar bo'yicha ma'muriy ishlarda birinchi instansiya sudlariga ariza bilan murojaat qilish mumkin.

Apellyatsiya va kassatsiya instansiyalari sudlari uchun fuqarolik, iqtisodiy ma'muriy ishlar bo'yicha shikoyat (protest) shaklida murojaat qilinishi kerak.

Murojaat va unga ilova qilinadigan hujjatlar sudga elektron shaklda <https://exsud.sud.uz> sayti orqali yuborilishi yoki bevosita sudning o'ziga olib borib berilishi mumkin.

2. ISHLAR QAYSI BOSQICHLARDA KO'RIB CHIQILADI?

Amaldagi tartibga muvofiq quyidagi bosqichlarda sud ishlari ko'rib chiqiladi:

birinchi instansiya, apellyatsiya, kassatsiya va takroriy kassatsiyada.

Ish sudga birinchi bosqichda ko'rib chiqilayotgan bo'lsa, uni birinchi instansiya sifatida barcha bo'g'in sudlari o'z vakolatlari doirasida ko'rib chiqishi mumkin.

Aytaylik, birinchi instansiya sudining chiqargan qaroriga norozisiz. Endi buning ustidan yuqori turuvchi sudlov bo'g'iniga apellyatsiya tartibida shikoyat yubora olasiz. Apellyatsiya sudining qarori ham Sizga ma'qul bo'lmadi, bunda kassatsiya tartibida Oliy sud ishni ko'rib chiqa oladi. Mabodo, kassatsiya bosqichida ham masalangizga qoniqarli ye-

chim topa olmasangiz, yana bir imkon bor – takroriy kassatsiya instansiyasida ish ko'rib chiqilishi uchun arz qilinishi mumkin.

3. MUROJAAT QILISH QANCHAGA TUSHADI?

“Davlat boji to'g'risida”gi qonunga muvofiq, sudga ariza, da'vo arizasi yoki shikoyatlar bilan murojaat qilishda davlat boji to'lanishi talab etiladi. Davlat bojining miqdori talab qilinayotgan da'vo bahosi va qonunda belgilangan stavkadan kelib chiqadi. Misol uchun, mulkiy xususiyatga ega da'vo arizalaridan da'vo bahosining 4 foizi miqdorida, biroq BHMning 1 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda to'lov amalga oshirilishi kerak.

Masalan, shartnoma bo'yicha 10 millionlik mahsulot yetkazib berilishi kerak edi, biroq kelishuv bajarilmadi. Bu yerda da'vo bahosi – 10 million so'm, uning 4 foizi 400 ming so'm hisoblanadi. Demak, da'vogar tomon, avvalo, 400 ming so'm to'lov qilishi va kvitansiyani da'vo arizasiga ilova qilgan holda sudga taqdim etishi kerak.

Bundan tashqari, ish sudga ko'rib bo'lingach, tegishli tarafdin sud chiqimlari ham undiriladi. Bular turkumiga pochta, videokonferensaloqa xarajatlari, sudga ekspert, mutaxassislar, guvohlar, tarjimonlarni jalb qilish bilan bog'liq xarajatlar va boshqa chiqimlar kiradi.

4. KIMLAR DAVLAT BOJINI TO'LAMAYDI?

Davlat bojini to'lashdan ozod qilinadigan jismoniy va yuridik shaxslarning ro'yxati “Davlat boji to'g'risida”gi qonun bilan belgilanadi. Masalan, fuqarolik ishlarida alimentlar undirish to'g'risidagi da'volar yuzasidan, ish haqini undirish to'g'risidagi da'volar va mehnat huquqlari munosabatlaridan kelib chiqadigan boshqa talablar yuzasidan, iste'molchilarning o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishi bilan bog'liq da'volari yuzasidan davlat boji to'lanmaydi.

Shuningdek, ma'muriy ishlarda tadbirkorlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzayotgan davlat boshqaruvi organlarining ustidan arz qilganda, iqtisodiy ishlarda esa Respublika Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalari palata a'zolarining manfaatlarini ko'zlab bergan da'volardan davlat boji undirilmaydi.

5. SUDDA MUAYYAN SHAXS O'RNIGA VAKIL QATNASHISHI MUMKINMI?

Muayyan vaziyatlar bo'ladiki, shaxsning o'zi sud protsessida turli sabablarga ko'ra ishtirok eta olmaydi. Masalan, safarda bo'lishi, o'zining huquq-manfaatlarini mustaqil himoya qila olmasligi, yuridik bilimi yetarli emasligi kabi holatlar tufayli o'zining o'rniga boshqa odam sudga qatnashishiga ehtiyoj tug'iladi. Bunda sudga vakil orqali ishtirok etishga qonun yo'l qo'yadi. Bu qoida yuridik shaxslarga ham tegishli bo'lib, ular ham o'z vakillari orqali sudga ishtirok etishlari mumkin.

Sudda vakillik ikki xil ko'rinishda vujudga kelishi mumkin: qonuniy va shartnomaviy vakillik shaklida.

Qonuniy vakillik belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan, bedarak yo'qolgan deb topilgan yoki o'lgan deb e'lon qilingan shaxslar huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga daxldor ishlarni sudga ko'rish majburiydir. Qonuniy vakil sifatida ota-onalar, vasiylar, homiylar va boshqa shaxslar ishtirok etadi. Uning kelib chiqishi uchun huquq va manfaatlarini himoya qilinayotgan shaxsning roziligi talab qilinmaydi.

Yuqoridagi holatlardan boshqa barcha hollarda vakillik shartnomaga asoslangan bo'ladi va faqat ishonch bildiruvchining bunga xohishi mavjud bo'lganda yuzaga keladi.

Shartnomaviy vakil sifatida advokatlar, to'g'ri va yon shajara bo'yicha qarindoshlar (ota-ona, bolalar, nevaralar yoki aka-uka, opa-singillar kabi), shuningdek qonunda belgilagan boshqa shaxslar sudga ishonchnoma orqali ishtirok etishlari mumkin.

Ne'matullo ZAMONOV,
huquqshunos



MARKAZIY OSIYO YOSHLAR FORUMI

Poytaxtimizdagi “Interkontinental Tashkent” mehmonxonasida “Yoshlar huquqlari: imkoniyatlar va himoya qilish mexanizmlari” mavzusida bo‘lib o‘tgan xalqaro forum Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, BMTning Inson huquqlari bo‘yicha oliy komissari boshqarmasi, O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi, BMT Taraqqiyot dasturining mamlakatimizdagi vakolatxonasi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi, tashkilotning O‘zbekistondagi loyihalari muvofiqlashtiruvchisi, Fridrix Ebert nomidagi jamg‘arma bilan yaqin hamkorlikda tashkil etildi.

Xalqaro anjuman Prezidentimizning 2023-yil 12-maydagi “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilin-ganining 75 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi farmoni doirasida o‘tkazildi.

Oliy Majlis qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori Akmal Saidov xalqaro forumning ochilish marosimida ushbu anjumaning o‘ziga xos xususiyatlari, dolzarbligi va muhimligini ko‘rsatadigan mezonlar xususida gapirdi. Jumladan, Markaziy Osiyo yoshlar forumi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 75 yilligi va Inson huquqlari bo‘yicha Vena butunjahon konferensiyasining 30 yilligini keng nishonlash doirasidagi tadbir ekanini alohida ta’kidladi.

Onlayn va oflayn shaklda o‘tkazilgan anjuman mintaqamiz mamlakatlari-ning 500 nafardan ortiq yoshlari, jumladan, yoshlar parlamenti a‘zolari, yoshlar tashkilotlari yetakchilari, shuningdek, mamlakatimizning barcha hududlaridagi oliy ta’lim muassasalari talaba-yoshlarini jamladi. Quvonarlisi, forumdagi yoshlar bilan maslahatlashuvlar natijalaridan 2023-yil dekabr oyida Jenevada o‘tadigan yuqori darajadagi tadbirda taqdim etilishi rejalashtirilayotgan “Inson huquqlari – 75” yoshlar deklaratsiyasi loyihasini ishlab chiqishda foydalaniladi.

Markaziy Osiyo yoshlar forumida BMTning Inson huquqlari bo‘yicha oliy komissari Folker Tyurk, YXHT-



ning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi direktori Matteo Mekachchi, UNICEFning O‘zbekistondagi vakili vazifasini bajaruvchi Jofri Ijumba, YXHT raisining Yoshlar masalalari bo‘yicha maxsus vakili Memet Jaku va Islom hamkorlik tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha mustaqil doimiy komissiyasi vakili Muhammad Laval Sulaymonning qutlov so‘zlari, fikr-mulohazalari, ma’ruzalari tinglandi.

Shundan so‘ng xalqaro anjuman o‘z ishini uchta yalpi majlis doirasida davom ettirdi. Unda milliy va xorijiy ekspertlar, Markaziy Osiyo mamlakatlari yoshlar tashkilotlari yetakchilari, yoshlar parlamentlari, inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, shuningdek, yoshlar huquqlari bo‘yicha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

Xurshid SULTONOV,
“Inson va qonun” muxbiri

ADABIY AYVON

BIZ ANA SHUNDAY DO‘STMIZ

Qiyomatli ikki do‘st bor edi. Ularning biri mug‘ombir, epchil va harakatchan; ikkinchisi esa sodda, halol va xotirjam edi. Bir kuni mug‘ombir do‘st sodda do‘stining yoniga borib, ishlarining yurishmay qolganini aytdi-da, undan yordamga pul so‘radi. Samimiy do‘sti unga qancha puli bo‘lsa hammasini berdi.

U ishlarini yo‘lga tushirib oldi, oradan bir qancha vaqt o‘tib yana do‘stining oldiga kelib u unashtirilgan qizni juda ham yoqtirishini aytdi va do‘stligining hurmatini o‘rtaga qo‘yib o‘sha qizdan voz kechishini iltimos qildi. Samimiy do‘st bu gaplarni eshitib hayratga tushdi. Ammo qizdan kechmasa do‘stlikning shartini bajara olmagandek bo‘ldi-da, uning aytganini qilib unashtirilgan qizidan voz kechdi. Oradan ko‘p o‘tmay, samimiy do‘stning ishlari teskari ketdi. U qiynalgan vaqtlarda yaxshilik qilgan edim, albat-ta, u ham menga yordam qiladi, degan ishonch bilan do‘stining yoniga borib, undan ishga olishini iltimos qildi. Ammo u ishga olmadi. Samimiy do‘st ish so‘rab kelganiga pushaymon bo‘lib ortga qaytdi, ammo do‘stiga jahl qilib, zahrini sochmadi.

Bir kuni ko‘chada aylanib yurganda kasalmand bir qariyani uchratib qoldi. Qariya faqir bo‘lgani bois dorixonadan

kerakli dorilarni ololmaganini aytdi. Uning qariyaga rahmi keldi, u bilan birga dorixonaga borib, unga kerakli dorilarni olib uyiga kuzatib bordi va dam olish uchun o‘tirib bir oz suhbatlashdilar.

Oradan ko‘p o‘tmay, o‘sha qariyaning vafot etganini eshitdi. Ayon bo‘lishicha, qariya juda ham boy odam bo‘lgan ekan va butun merosini unga xatlab qoldiribdi. Sodda do‘st endi boy bo‘lib qoldi. Do‘stiga bo‘lgan ginasini yuzidan uning ishxonasiga yaqin joydan uy sotib olib, o‘sha uyda yashay boshladi. U ishlarining zo‘r bo‘lib ketganini, tavallo qilib borganida uni ishga olmagan do‘stining har kuni ko‘rib turishini istar edi. Bir kuni eshigini bir tilanchi ayol taqillatdi. Keksa ayol juda ham och va behol edi, undan biror yegulik berishini iltimos qildi. Samimiy do‘st darhol ayolni uyga olib kirib, qornini to‘ydirdi. Uning kimsasiz ekanini eshitgandan so‘ng men ham yolg‘izman, ikkalamiz ona-bola bo‘lib birga yashayveramiz, siz uyning ishlarini qilasiz, ovqat pishirasiz, dedi. Ayol hech ikkilanmasdan rozi bo‘ldi.

Bir necha oy shunday yashaganlaridan keyin ayol unga yaxshi qiz topib uylanishi lozimligini aytdi. Samimiy do‘st bunday qizni qanday topishini, tanishlari yo‘qligini aytdi. Keksa ayol

ajoyib bir qiz borligini, istasa ularni uchrashtirishi mumkinligini so‘zladi. Yigit qiz bilan uchrashgandan so‘ng unga darhol ko‘ngil qo‘ydi va uylanishga qaror qildi. To‘y taraddudi boshlanib ketdi, taklifnomalar tayyorlandi. Ranjib yurgan bo‘lsa-da, do‘stini sira ham unuta olmayotgan edi, unga ham taklifnoma yubordi. To‘y kuni ham yetib kelib, shodiyona boshlandi. Mehmonlar o‘yin-kulgi qilayotgan chog‘da kuyov qo‘liga mikrofonni olib gap boshlab qoldi:

– Ilgariroq juda ham yaxshi ko‘rgan bir do‘stim bor edi. Ishlari yurishmay qolib, mendan qarz so‘radi. Qo‘limda qancha pulim bo‘lsa, hammasini berdim. Unashtirilgan qizimni yoqtirib qolganini aytdi, do‘stligimizning hurmati deya qizdan ham voz kechdim. Ammo o‘sha chog‘da ichim qonga to‘ldi, ko‘zlarimni yashirib yig‘ladim. Ammo unga aslo sezdimadim. Chunki do‘stlikning sharti shunday bo‘ladi, deb tushundim. Mening baxtimni olgan uchun xijolat bo‘lmasin, dedim. Vaqti kelib mening ishlarim teskari ketganda ish so‘rab uning fabrikasiga bordim. U menga ish bermadi. Juda xafa bo‘ldim. Ammo do‘stimga jahl qilmadim, negaki, biz haqiqiy do‘st edik.

Bu ta’nalarni eshitgan epchil do‘st chiday olmasdan yugurib sahnaga chiqdi, do‘stining qo‘lidan mikrofonni olib bunday dedi:

– Mening ham bir zamonlar juda yaxshi ko‘radigan bir do‘stim bor edi. Ishlarim yurishmay qolib undan qarz so‘radim. Hamma pulini menga berdi. So‘ngra undan unashtirilgan qizini so‘radim. Malollanibroq unashtiril-

gan qizidan ham kechdi. U qizdan voz kechishini so‘raganimning sababi u do‘stimga loyiq emas edi, satang ayol edi. O‘zi nihoyatda pok tiynatli bo‘lgani bois, do‘stimni ana shu satangning tuzog‘iga tushishdan ana shu yo‘sin-da himoya qildim. Ishlari yurishmay qolganda kelib mendan ish so‘radi. Ammo bu mumkin emas edi – do‘stimni amrimning ostida ishlata olmas edim. Shuning uchun unga ish bermadim. Kunlarning birida uchratib qolgani kekse chol mening otam edi, otamning dardi og‘ir edi, o‘limi yaqinlashib qolgan edi. Uni do‘stimning yoniga men yubordim, merosini unga men qoldirtirdim. Uyiga kelgan tilanchi ayol esa mening onam edi. Do‘stim uyida yolg‘iz qiynalib qolmasin, issiq-sovug‘idan xabar olib tursin deb onamni jo‘natdim va hozir u uylanayotgan qiz mening singlim. Uning singlimga uylanishini men uyushtirdim. Biz ana shunday do‘stmiz.

Turk tilidan Damir JUMAQL
tarjimasi

E‘LON

“Notariat to‘g‘risida”gi qonunning 152-moddasi va Jizzax viloyati adliya boshqarmasi boshlig‘ining 2023-yil 23-oktabrdagi 190-um-son buyrug‘i va komissiya qaroriga asosan Forish tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius V. Xolmatovga berilgan xususiy amaliyot bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va notarius maqomi 1 oy muddatga to‘xtatildi.

8 BONG



Urush va Tinchlik. Bu soʻzlar bir-biridan shu qadar yiroq va bir-biriga shu qadar yaqinki... Bir nafasda kutilmaganida hamma narsa ostin-ustun boʻlishi, bir lahzada tinchlikning osmonini qora bulutlar qoplashi, bitta daydi oʻq bilan butun bir millatning yuragini yarador qilish mumkin. Har qanday johillikda, har qanday qarama-qarshilikda yomonlikning, bosqinchilikning sovuq nafasi bor. Urush hamisha yovuzlik va vahshiylikdan dalolatdir. Urush adovatlarda, vayronalarda yashaydi, behuda toʻkilgan qonlarning uvolida laʼnatlanadi.

tirgan yovuz mavjudotga aylanib borayotgan boʻlsa? Nahotki, begunoh odamlarning, norasida goʻdaklarning qonidan, uvolidan qoʻrqmaydigan beshafqat zoʻravonlarni jilovlaydigan, ularga qarshi chiqadigan kuch topilmasa? Nahotki, insoniyat Tinchlikni qonxoʻrlikka almashtirayotgan bir hovuch malʼunlarga qarshi tura olmaydigan darajada ojiz boʻlsa?!

HAMDARDLIK, BAYONOTLAR, NAMOIYISHLAR...

Ijtimoiy tarmoqlar, rasmiy, norasmiy saytlar butun dunyo boʻylab jafokashlarga hamdardlik, koʻchalarda ularni qutqarishga daʼvat qiluvchi namoyishlar, turli davlatlarning bu xunrezlikni toʻxtatish kerakligi toʻgʻrisidagi bayonotlaridan xabardor qilayapti. Xayriyat, dunyoning koʻzi koʻr, qulogʻi kar emasligi koʻngilga biroz tasalli beradi. Bugun tinchliksevar xalqlarning birlashishi, bir-birini qoʻllab-quvvatlashi qanchalik muhim va naqadar katta kuch ekanligi yana bir karra ayon boʻldi.

Oʻzbekiston Tashqi ishlar vazirligi Gʻazo sektoridagi Al-Ahliy shifoxonasiga uyushtirilgan havo hujumini qoralab, bu haqda bayonot berdi. "Gʻazo sektoridagi Al-Ahliy kasalxonasiga uyushtirilgan havo hujumi oqibatida koʻplab insonlar halok boʻlgani haqidagi xabarni chuqur qaygʻu bilan qabul qildik. Bu dahshatli zoʻravonlik harakatini keskin qoralaymiz va buni xalqaro gumanitar huquqning qoʻpol buzilishi deb hisoblaymiz", deyiladi bayonotda.

BMTDAN UMID YOʻQMI?!

Keyingi yillarda dunyo turli-tuman urushlar xavfidan, zarbalar ofatidan chayqalib turgani hech kimga sir emas. Dunyoning turli burchaklarida tinchlikka rahna solayotgan zoʻravonlar bisyor. Butunjahon tinchliksevar ahli ishongan

Birlashgan millatlar tashkilotidan umid yoʻqligi, uning inqirozli vaziyatlarni yumshatishga qodir emasligi, albatta, achinarli. Nega huquq va umuminsoniy qadriyatlar toptalgan bu dahshatli fojiga qarshi BMTning qatʼiy qarori yoʻq?

BMT Xavfsizlik Kengashi haqidagi Hudud24.uz saytidan olingan quyidagi xabar kishini battar taajjubga soladi:

"Xavfsizlik Kengashi tashkil etilganidan buyon turli xalqaro va ichki nizolarni, ziddiyatli vaziyatlarni hal qilishga katta hissa qoʻshdi. Kengash nizolarni hal qilish uchun vositachilik guruhlarini tuzadi, ixtiloflarni keltirib chiqargan faktlarni aniqlash missiyalarini tashkil qiladi. Xavfsizlik Kengashi-ning faoliyati tufayli BMT 1988-yilda Tinchlik boʻyicha Nobel mukofoti bilan taqdirlandi".

Tinchlik boʻyicha, ha, aynan Tinchlik boʻyicha Nobel mukofoti bilan taqdirlangan bu nufuzli tashkilotning begunoh bolalarning behuda toʻkilgan qonlari uchun harbiy jinoyatchilardan tovon talab qilish missiyasi yoʻqligi juda achinarli va afsusli.



Isroil hukumatining Gʻazoga kechayu kunduz bomba yogʻdirishi natijasida har kuni halok boʻlayotgan begunoh odamlar soni ortib bormoqda. Ularning aksariyati bolalar. Qonli yoʻrgaklarga oʻralgan norasida bolalarning jasadini quchoqlab dod-faryod chekayotgan ota-onalarning nolasini eshitish, koʻzlarida dahshat qotib qolgan, butun vujudi titrayotgan bolalarning ayanchli qiyofasi aks etgan lavhalarni ijtimoiy tarmoqlarda koʻrish odamning yuragini muzlatib yuboradi.

Bu xunrezlikka birovning dardi, oʻzganing tuprogʻi, begonaning bolasi deb emas, qalbimizni qaqshatayotgan ogʻriq deb qarashimiz, qaygʻu bilan gʻazoliklar fojiasini his etishimiz kerak.

Biz Tinchlik tarafdorimiz. Behuda qon toʻkilishiga erk bermang, guldek ojiz, jondan aziz bolalarning umriga zomin boʻlmang, ey zolimlar!

Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri

"OʻZNI ETGIL DOIMO inson oʻzing, inson oʻzing..."

Xudoga shukur, urush koʻrmadik, ammo urushning kasofatini, asoratini qalbimiz bilan his etib turamiz. Olismi, yaqinmi, qaysidir oʻlkada oʻq ovozi eshitilsa, yuragimiz titraydi. Urushning, oʻlimning millati yoʻq. U koʻrgan odamni emas, hatto eshitgan odamning qalbini oʻpirib yuboradi. Yetmish yildirki ikkinchi jahon urushining jarohatlari bitmaydi. Ammo insoniyat... bugungi dunyo ham qalqib turibdi.

Hozirda ochunning turli joylarida kechayotgan urush dahshatlari barchamizni qanchalik vahimaga solgani, hushyor torttirayotgani aniq. Tarixiy shaharlarning vayron qilinishida, begunoh xalqning qoʻlsiz, oyoqsiz, uysiz – joysiz, Vatansiz qolayotganida manfur va laʼnati urushning qoʻli bor.

Zotan, bir urushning oʻchogʻi oʻchmasdan yana boshqa urush olovining dahshati dunyoni larzaga solayapti. Falastin fojiasi dunyo mamlakatlari-ning birlashishini, tinchlikni toptashga yoʻl qoʻymaslik uchun qanday chora boʻlsa hammasini koʻrish shartligini taqozo qilayapti.

Gʻazo boʻlgasi nega urush oʻchogʻiga aylandi, ikki milliondan ortiq tinch aholi boshiga nega qora kunlar tushdi? Xunrezlik nega toʻxtamayapti?

Tarixning guvohlik berishicha, Falastin va Isroil oʻrtasidagi mojaro qariyb 75 yildan beri davom etib kelayotgani taʼkidlanmoqda. Mamlakatlar oʻrtasidagi bu qarama-qarshilik dunyodagi eng uzoq davom etib kelayotgan bahslardan biri. Ikki davlat oʻrtasidagi hududiy nizo sabab dunyo koʻrmagan dahshatli xunrezliklar toʻxtamayotir. Begunoh bolalarning umriga zomin boʻlgan, masjidlar, shifoxonalarga bomba yogʻdirib, kulini koʻkka sovurgan, bolalarni ota-onasiz, ota-onalarni bolasiz qoldirganlar eng ogʻir jazoga loyiq. Qurbonlar soni soat sayin ortib borayotgani, ularning aksariyati bolalar ekanligi kishini battar tashvishga soladi, gʻazablantiradi...

Nahotki, Tinchlikning tomiri uzilgan boʻlsa? Nahotki, odamzod vahshiylikni oʻz maqsadiga aylan-

INSON
va qonun

MUASSIS:
OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
Oʻzbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
roʻyxatga olingan



**Bosh
muharrir**
Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAYʼATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Xayotjon Klichev
Sevara Oʻrinboyeva
Yorbek Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qoʻlyozmalar taqriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Marusa Hosilova
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar koʻchasi, 1a-uy

Tiraji – 3500
Buyurtma – 3200

Topshirish vaqti – 19:00
Topshirildi – 19:00

MANZILIMIZ:

100060, Toshkent sh.
Amir Temur shohkoʻchasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna boʻlimi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5